

**“SZF-06C” SOKSLET ANALIZATORI YORDAMIDA ZIG’IR URUG’IDAN MOY
AJRATISH TEXNOLOGIYASI**

Sh. Z. Qodirova

Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti Eksperimental va sport
farmakologiyasi yo’nalishi 2-bosqich magistranti

S. A. Saidov

Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti tibbiyot fanlari doktori, professor

J. O. Mirsultonov

Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi

R. R. Qo’chqorova

Nizomiy nomidagi TDPU kimyo fanlari nomzodi

Annotatsiya


Ushbu maqola zig’ir urug’idan laboratoriya sharoitida moy ajratish texnologiyasi haqida aniq ma’lumot beradi.

Kalit so’zlar: zig’ir urug’i, “Farmatsevtika Innovatsiya Markazi” MCHJ, “SZF-06C” Sokslet yog’ analizatori, etil spirti, geksan.

Laboratoriya sharoitida zig’ir urug’idan moy ajratib olish uchun “Farmatsevtika Innovatsiya Markazi” MCHJ dagi “SZF-06C” Sokslet yog’ analizatoridan foydalandik.



Bunda dastlab analizator yo'riqnomasi bilan tanishib chiqildi, ish holatiga keltirildi, zarur bo'lgan zig'ir urug'i va reagentlar miqdor jihatidan tahlilga tayyorlandi.



Texnologiyasi: Filtr qog'ozi bilan 6 ta idishga mo'ljallangan voronkalar yasaldi, har bir voronkaga 4 qoshiqchadan zig'ir urug'i solindi, voronkalar shisha idishga o'rnatildi, shisha idishlarga 40 ml dan etil spirti quyildi, analizator harorati etil spirtining qaynash harorati 78°C da bo'lgani sababli yog' analizatori shu haroratga ko'tarildi, vaqt hisobga olindi.





Yog' analizatori orqali zig'ir urug'idan moy ajratib olish jarayonini geksan yordamida ham amalga oshirsa bo'ladi. Bunda texnologik jarayon etanol (etil spirti) kabi bo'ladi, faqat etanol o'rniga 40 ml geksan olinadi va harorati, shuningdek, vaqt hisobga olinadi.



Jarayon tugagandan so'ng ajralgan zig'ir urug'i moyi yig'ib olinadi va keying jarayonlar uchun tayyorlanadi.

Xulosa

Zig'ir urug'idan moy ajratishda texnika xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda ish joyi tozaligiga e'tibor berib, belgilangan sifat va miqdor doirasida jarayon olib borilsa natija

ham kutilgandek bo'ladi. Bunda, albatta, ishlatilayotgan etanol yoki geksaning yaroqlilik muddati tekshirilgan bo'lishi, belgilangan miqdor va vaqt hisobga olinishi zarur. "SZF-06C" Sokslet yog' analizatori yordamida yog' olish laboratoriya sharoitida aniq usul ekanligi va reagentlarning topilishi osonligi bilan ustunlik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova, S. Z. (2023). TOBORA YOSHARIB BORAYOTGAN KO'Z KASALLIKLARI. Conferencea, 29-30.
2. Qodirova, S. Z., Saidov, S. A., Mirsultonov, J. O., & Qo'chqorova, R. R. (2024, May). "QURUQ KO'Z" SINDROMI BILAN KECHUVCHI PATOLOGIYALARNING EKSPRESS DIAGNOSTIKASIDAGI IMKONIYATLAR: EKSPERIMENTAL SHARX. In E Conference Zone (pp. 5-10).
3. Qodirova Sh.Z., S.A.Saidov, J.O.Mirsultonov, R.R.Qo'chqorova (2024/6/29) Review of Monographs on Etiology, Diagnosis and Treatment of Dry Eye Syndrome. Procedia of Engineering and Medical Sciences. 106-109
4. Qodirova Sh.Z., S.A.Saidov, R.R.Qo'chqorova "QURUQ KO'Z" SINDROMINI TASHXISLASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR: DISSERTATSIYALAR SHARHI. International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg. 24-30
5. Qodirova Sh.Z. 1 % LI ATROPIN SULFAT ERITMASI YORDAMIDA LABORATORIYA QUYONLARIDA "QURUQ KO'Z" SINDROMINI MODELLASHTIRISH. Перспективные исследования по медицинской химии, биохимии и биофизике в области медицины. 719-721
6. Qodirova Sh.Z., S.A.Saidov, R.R.Qo'chqorova. "QURUQ KO'Z" SINDROMINING ETIOLOGIYASI VA ETIOPATOGENEZI. "Sifatli ta'lim-taraqqiyot poydevori" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy anjuman. 964-968.
7. Qodirova Sh.Z., S.A.Saidov, R.R.Qo'chqorova. KO'Z KASALLIKLARINING TARQALISHI VA PROFILAKTIKASI. "Ilm-fan va yoshlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 357-358
8. "SZF-06C" Sokslet yog' analizatori yo'riqnomasi. "Farmatsevtika Innovatsiya Markazi" MCHJ.